

AXBOROT XAVFSIZLIGI TUSHUNCHASINING PSIXOLOGIK MOHIYATI

Andijon davlat pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti
Pedagogika va psixologiya
yo‘nalishi 3-bosqich talabasi
Kozimov Sayfulloh Maxammadjon o‘g‘li

Annotatsiya: Ushbu maqolada axborot xavfsizligi tushunchasining psixologik mohiyati mavzusi yoritilib o‘tilgan. Axborot-psixologik xavfsizlik muammosi tarixan olib qaralganda har qanday davlatning shakllanishi va jamiyatda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy manfaatlar hamda ularning mafkuraviy sohada ifodalanishi bilan vujudga keladi. Shuningdek, axborot-psixologik xavfsizlik muammosi ana shu vaqtdan barqarorlik, rivojlanish bilan birga muayyan xarakterdagi informatsion-psixologik xavf-xatar, ma’naviy va mafkuraviy tahdidlar ham paydo bo‘ladi.

Kalit so‘z: axborot, axborot-psixologik xavfsizlik, sivilizatsiya, axborot huruji, destruktiv g‘oya, axborot sektori

Axborot tushunchasi hozirgi vaqtda global ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, u insonlar tafakkuriga turli yo‘nalishlarda ta‘sir o‘tkazuvchi, hayot va undagi juda ko‘plab taqdirnlarni u yoki bu tomonga burib yuboruvchi, ba‘zan salbiy, ba‘zan ijobiy mohiyat kasb etuvchi qudratli qurolga aylandi. Shuningdek, hayotning har bir jabhasiga o‘zining sezilarni darajada ta‘sirini ko‘rsatmoqda. Umuman olganda, axborot – moddiy dunyoning organizmda yoki organizmlar jamoasida aks etgan hamda ular tomonidan atrof-muhit o‘zgarishlariga moslashish uchun foydalaniladigan moddiy dunyo obyektlarining aksidir [1;98].

Qachonlardir ilohiy ma‘no kasb etgan bu so‘z, uning qudrati bugungi kunga kelib, dunyo taqdirini hal qilishda eng asosiy rol o‘ynaydigan kuchli vosita maqomiga ko‘tarildi. Ilm-fan, texnika inqilobidan keyin kommunikatsion texnologiyalar hamda axborot infratuzilmalarining katta tezlikdagi taraqqiyoti, xususan, internetning paydo bo‘lishi hamda uning qisqa vaqt ichida ijtimoiy hayot tarziga chuqur kirib borishi axborotni eng qimmat mahsulotga aylantirdi. Darhaqiqat, globallashuv va integratsiyalashuv sharoitida oltin, platina, javohirdan ko‘ra ko‘proq qiymatga ega bo‘lgan - axborot jahon bozorida munosib joy oldi. Kim axborotga egalik qilsa, u dunyoni boshqaradi, qabilidagi fikrlarni bir necha bor esga olinayotgani ham bejizga emas.

Har bir fuqaro o‘z shaxsiy nuqtai nazari, fiklash doirasi, dunyoqarashi, ma’naviy-ma’rifiy, axloqiy, ruhiy imkoniyatlari doirasidagina faoliyat ko‘rsatadi. O‘z olami hududida yashaydi va tashqi olamga o‘z aqli doirasida munosabat bildiradi. Har bir individ mustaqil inson sifatida tabiiy-biologik kamolotidan va ruhiy ehtiyojidan kelib chiqib, o‘ziga mos axborotni qabul qiladi, tahlil etadi. Mushohada va tahlillar asosida shaxsiy xulosasiga ega bo‘ladi. Natijada mazkur shaxs u yoki bu tarzda nuqtai nazarini shakllantiradi [3].

Demak, har qanday axborotning mazmuni, mohiyati, ta‘sir etish darajasi, jamiyatga foydali yoki zararliligi, kishini ezgulikka yoki yovuzlikka da’vat etishi bilan shaxs, jamiyat, davlat mutanosibligiga ijobiy yoki salbiy ta‘sir etadi. Ana shu jihatdan qaraganda, milliy manfaatlarini asrash va rivojlantirishda informatsion-psixologik xavfsizlikni ta‘minlashning roli yana ham oshadi.

Axborot-psixologik xavfsizlik, avvalo, bevosita inson ruhiyatiga ta‘sir o‘tkazish orqali uni o‘z aqidalaridan, e’tiqodidan ayiradigan buzg‘unchi g‘oyalardan asrashdir. Bundan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, informatsion-psixologik xavfsizligiga ehtiyoj, eng avvalo, bevosita inson va jamiyat, inson va davlat, shaxs va uning daxlsizligi, millat va milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an‘analar, tarixiy va madaniy meros, avlodlarga ta‘sir etuvchi

buzg‘unchi g‘oyalar va tajovuzkor mafkuralarning mavjudligidan kelib chiqadi. Qolaversa, axborot-psixologik xavfsizlikka rioya qilinmasa, uning ta’sirchan choralari ko‘rilmasa, destruktiv g‘oyalar milliy xavfsizlikka putur yetkazishi mumkin.

Axborotlashgan jamiyat kishilik jamiyati rivojlanishining hozirgi bosqichida shakllanayotgan va ijtimoiy hayotning barcha sohalarida axborot hamda informatsion texnologiyalardan oqilona foydalanishga asoslangan sifatli holatini ifodalovchi tushuncha. Axborotlashgan jamiyat nazariyasi asoschilari ijtimoiy rivojlanishni “bosqichlar almashinuvi” nuqtai-nazaridan qaraganda, uning shakllanishini qishloq xo‘jaligi, sanoat va xizmatlar iqtisodiyotidan keyin paydo bo‘lgan iqtisodiyotning to‘rtinchi – “axborot sektori” yuzaga kelishi bilan bog‘laydilar. Ularning fikriga ko‘ra, industrial jamiyatning asosi bo‘lgan kapital axborotlashgan jamiyatda o‘z o‘rnini axborot va bilimga bo‘shatib beradi [2;252].

O‘zbekiston sharoitida axborot almashish jarayoni xavfsizligini ta’minlash uchun o‘ylaymizki, axborot hurujlari sharoitida quyidagi vositalarga alohida e’tibor qaratish kerak: ya’ni axborotlashtirish vositalari faoliyatini, milliy o‘zligimiz va manfaatlarimizga zamonaviy usullar orqali muvofiqlashtirish; shaxs axborot xavfsizligiga qarshi barcha zamonaviy vositalardan foydalanish; ichki va tashqi siyosatda ro‘y berayotgan voqealarni yoritishda yangicha yondashuvlarni qo‘llash; O‘zbekistonning xalqaro aloqalarini tahlil qilish borasida tizimli yondashuvlarni ishlab chiqish, islohotlarning axborot ta’minotini ta’minlash ishida matbuot va elektron ommaviy axborot vositalari harakatini birlashtirishga alohida e’tibor qaratish, barcha axborot ta’sirlar doirasini nazoratga olish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

ADABIYOTLAR:

1. O.Abduazimov Ommaviy axborot vositalari – fuqarolik jamiyatini barpo etish omili Akademiya Toshkent-2008 98-bet
2. A.T.Kenjabojev Axborotlashtirish milliy tizimini shakllantirish muammolari “Ibn-Sino” nashriyoti Toshkent-2004 252-bet.
3. M.Yoqubova Axborot texnologiyalarining falsafiy asoslari. Uslubiy qo‘llanma. Star – Poligraf Toshkent-2008
4. V.M.Karimova Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot «Universitet-nashriyoti» Toshkent-1999
5. S.M.Kozimov (2022). Insonlarda vaqtni to‘g‘ri taqsimlash muammosi va unga psixofiziologik yondashuv. Моя профессиональная карьера, 6(23), 50-56.
6. <http://farspublishers.org/index.php/ijessh/article/view/2071>
7. O‘Gilxontolibjonovna, V. (2023). AXBOROT MUHITI YOSHLAR IJTIMOY NORMALARI SHAKLLANISHIGA TA’SIRINI TADQIQ ETISHNING METODIK JIHATLARI. Современное образование (Узбекистан), (11 (132)), 15-22.